TIL TIZIMIDA SO‘Z SHAKLI VA MA’NOSINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Abdirazakova Zilola Kulmuratovna
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
2 bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda til tizimida so’z shakli va uning ma’nosi o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. So’zning shakli va ma’nosi orasidagi semantik-morfologik munosabatlari va mashhur tilshunoslarning nazariyalarining tahlili asosida ko’rib chiqiladi. Tadqiqotlar natijasida til birligi sifatida so’zning shakli faqat tashqi jihatdan emas, balki uning ma’no tashuvchi muhim omil ekanini ko’rishimiz mumkin.*

Kalit so’zlar: *So’z, so’z shakli, so’z ma’nosi, ong, tasavvur, semantik uchburchak, lingvistik tahlil, formal shakl, semantika, til tizimi.*

Tilda har bir so‘z ikki asosiy omil – shakl va ma’no – birligidan tashkil topadi. Bu ikki komponentning o‘zaro munosabati tilshunoslikda uzoq yillardan beri bahs-munozara va ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. So‘zning shakli bu uning fonetik va morfologik tuzilishidir, ma’nosi esa uning anglatgan mazmunidir. Ogden va Richards tomonidan ishlab chiqilgan **semantik uchburchak** modeli bu bog‘liqlikni tasvirlashda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. C.K. Ogden & I.A. Richards “The meaning of meaning” kitobida **belgilovchi (symbol)**, **tushuncha (thought/reference)**, va **denotat (referent)** – o‘rtasidagi murakkab va bilvosita bog‘liqlik haqida fikr yuritiladi va tahlil qilinib tushuntiriladi. So‘z (symbol) bilan voqelik (referent) o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish yo‘q, balki ularning o‘zi ongda yaratilgan tushunchalar (thought) orqali ifodalanadi deb o’z nazariyalarini ilgari surishgan. Ya’ni shu bilan birga har bir so‘z uchun bitta, statik ya’ni muqim ma’no yo‘q deb izohlaganlar, balki so’zlarning ma’nolari odamlarning ongida shakllanadi deyishgan. Demak, ma’no so‘zda emas, kishining idrokida bo‘ladi degan. So‘zning aniq va to’g’ri tushunish kontekst ya’ni matn muhim hisoblanadi. So’z qanaqa ma’noda kelayotgani va nimani ifodalab kelayotganini kontekst orqali bilib olamiz. So’z shakli ongda aks etadi va kontekstda o’z to’g’ri manosini ifodalaydi, ya’ni so’z shakli birdan voqelikka o’tib ketolmaydi, so’z shakli ongga borib tasavvur paydo bo’ladi va voqelik orqali to’g’ri ma’nosini aks ettiradi.

Ferdenand de **Saussure** “Umumiy tilshunoslik kursi” kitobida so’zni til belgisi deb ifodalagan. U til belgisi deganda ikki tomondan iborat bo’lgan birlik deb izohlaydi. Ya’ni til belgisining shakli va ma’nodan iborat deydi. Ular o’rtasidagi bog’liqlik tabiiy emas, kelishilish asosida bo’ladi deb izohlaydi, ya’ni shakllanishi tarixiy, lekin tabiiy emas, Chunki bir tildagi bir so’z boshqa tilda boshqacha izohlanadi.

Til belgisi, Saussure fikricha, izolyatsiyada emas, balki **til tizimi** ichidagi boshqa belgilar bilan farqlanish orqali mavjud bo‘ladi. Bu qarash so‘z ma’nosini mustahkamlovchi asos sifatida **kontekst** va **strukturani** ko‘zda tutadi.

Boshqa tomondan, **Ogden va Richards** so‘z shakli va ma’nosining o‘zaro bog‘liqligini **semantik nuqtai nazardan**, ya’ni inson tafakkuri va ong jarayoni orqali tahlil qiladi. Ular yaratgan **semantik uchburchak** modeli so‘z shakli (symbol), real narsa (referent) va ongdagi tushuncha (thought or reference) o‘rtasidagi murakkab, ammo vositali munosabatni ifodalaydi. Ularning qarashicha, so‘z shakli va uning ifodalamoqchi bo‘lgan predmet (referent) o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud emas. Ular ongdagi **tushuncha orqali bog‘lanadi**, ya’ni tilning semantik jihatlari **psixik mexanizmlar** bilan chambarchas bog‘liq.

Noam Chomskiyning fikriga ko’ra, tilning tashqi shakli (surface structure) ichki shakli (deep structure) mavjud. Shakl va ma’no o’rtasidagi munosabat chuqur tuzilma orqali yuzaga chiqadi.

Noam Chomsky tilni shunchaki so‘zlar to‘plami emas, balki **generativ tizim** deb biladi:“Tilda ma’noni tushunish — grammatik tuzilmalarning ichki mantiqiy tartibini tushunishdir.”Ya’ni, **so‘z shakli (formasi)** — bu grammatik vosita, lekin u **ma’noni avtomatik tarzda bermaydi**, balki **mantiqiy va strukturaviy kontekst** bilan birga ishlaydi. So’zlar grammatik jihatdan tuzilib shakllanishi muhim ahamiyatga ega, lekin har doim ham grammatik to’g’ri tuzilgan gap ma’noga ega bo’lavermaydi. Shakl va ma’no to’g’rida-tog’ri bog’liq emas, ularning munosabati grammatik va mantiqiy tizim orqali aniqlanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, har ikkala yondashuv ham so‘z shakli va ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni inkor etmaydi, balki bu bog‘liqlikning xarakterini turlicha izohlaydi: **Saussure** til belgilarining ichki tizimiy aloqalariga urg‘u beradi; **Ogden va Richards** esa inson tafakkuri, tushuncha va idrok jarayonlari orqali ma’no shakllanishiga e’tibor qaratadi.

Demak, so‘z shakli va ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikni biryoqlama emas, balki **ko‘p qirrali tizim sifatida** o‘rganish zarur. Bu bog‘liqlik nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham murakkab va serqirradir. Shakl va ma’noning o‘zaro munosabati doimiy qat’iylikka ega emas. Ba’zi hollarda shaklning o‘zgarishi ma’noni ham o‘zgartiradi (yoki yangilaydi), boshqa hollarda esa shakl o‘zgaradi-yu, ma’no saqlanadi. Bundan tashqari, **shakl o‘zgarmay turib**, **ohang yoki kontekst orqali** ma’no farqlanishi mumkin. Bu holatlar tilning **dinamik**, **ko‘p qatlamli** va **kontekstga bog‘liq** tabiati bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saussure, F. de. (1916). *Course in General Linguistics*. New York: McGraw-Hill.
2. Ogden, C. K., & Richards, I. A. (1946). *The Meaning of Meaning: A Study of the Influence of Language upon Thought and of the Science of Symbolism* (8th ed.). New York: Harcourt, Brace & World.
3. Yusupov, Sh. (2006). *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Hodiyev, N. (2010). *Leksikologiya va frazeologiya*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
5. Xayrullayev, X. Z. (2016). *Tilshunoslik* (O‘quv-uslubiy majmua). Samarqand: SamDChTI.
6. Jo’rayev, M. (2008). *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.